



BO'LAJAK O'QITUVCHINING IJODIY

INDIVIDUALLIGI XUSUSIDA

Maxmudova Nigora Hikmatovna

Osiyo Xalqaro Universiteti

Pedagogika va psixologiya kafedrasи o`qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada shaxsning faoliyatning faol sub'ekti sifatidagi xususiyatlari, o`qituvchi oldida doimo murakkab mohiyatiga ko`ra ijodiy vazifalar, ijodkor shaxs uchun xarakterli xususiyatlar yoritib berilgan. Unda o`qituvining ijodiy individualligi qadriyatlar, motivatsiya, ustakovka orqali yo`nalganlik psixik sifat va jarayonlarning individual ko`rinishlari kabi shaxsiy sifatlar; tafakkur mazmuni, daraja va operatsiyalari kabi kognitiv tomonlari tahlilga tortilgan.

Kalit so`zlar: Shaxs, motivatsiya, ijodkorlik, ideallar va hayotiy qadriyatlar, ijodiy individuallik, sustlashtiradigan omillar.

Shaxs – kadrlar tayyorlashning asosiy subyekti va obyekti, ta'limgiz xizmatlari iste'molchisi va ishlab chiqaruvchisi. Kadrlar tayyorlash sohasidagi davlat siyosati barkamol rivojlangan shaxs - fuqaroning, avvalo, intellektual, ma'naviy-axloqiy va jismoniy rivojlanishi bilan uzviy bog'liq uzlucksiz ta'limgiz tizimi har tomonlama rivojlanishini ko'zda tutadi.

Ta'limgiz yangi tipini yaratish uchun ta'limgiz axborot paradigmaсини mazmuniga o`zgartirish zarur. Faqat shu holdagina ta'limgiz pedagogik jarayonning barcha subyektlarini rivojlantirish o`zining asosiy maqsadi etib belgilashi mumkin bo'ladi. Muallif bo'lish qobiliyati, refleksiya qobiliyati, ongning tolerantlik tavsiflari yuzaga kelishi va rivojlanishi va insonning dialogga qodirligi kabi shaxsning xususiyatlari – shaxsning faoliyatning faol sub'ekti sifatidagi xususiyatlari hamkorlik pedagogikasi asosida shaxsga yo`naltirilgan



o'qitish va tarbiyalash sharoitida shakllanishi mumkin. Bunday o'quv jarayonining asosiy maqsadi har bir ta'lif oluvchining ijodiy qobiliyatlar o'sishini ta'minlashdan iborat. Buning uchun esa pedagogning o'zi ijodkor shaxs bo'lishi, ijodiy, mualliflik maktabi tajribasiga ega bo'lishi kerak.

O'qituvchi oldida doimo murakkab mohiyatiga ko'ra ijodiy vazifalar turadi: ta'lif mazmunini va o'qitish mazmunini o'zgartirish; normativlarni tanlash va berilgan normativlarni «kishilarning jonli hislariga» joriy qilish; real, o'zi va o'quvchilar tomonidan (har safar yangidan) yaratiladigan vaziyatlarda harakat qilish. Pedagogik ijod nafaqat ta'lif oluvchining «turgan» madaniyatni o'zlashtirishi va shu asosda ularning individualligini rivojlantirishga ko'maklashadi, balki dunyo manzarasini va unda o'zining shaxsiy obrazini yaratish imkonini beradi.

Shaxsning xususiyati sifatida ijod haqida gap borganda, ta'kidlash joizki, ko'plab tadqiqotchilar alohida xususiyatlarni (qo'rmaslik, originallik, fikr tanqidiyligi, mustaqillik va b.) tilga olish bilan birga ijodkor shaxsning yaxlit modelini qurishga ham intiladi.

Ye.A Aleksandrova, M.V.Alyoshinaning fikricha, ijodkor shaxs uchun o'quv-ijodiy, motivatsion-ijodiy, ilmiy faollikka barqaror, yuqori darajada yo'nalganlik xos bo'lib, u shaxsga faoliyatning bir yoki bir necha turida ko'ngildagi ijodiy natijalarga erishish imkonini beradigan ijodiy qobiliyatlarning yuqori darajadagi zahirasi bilan birlikda namoyon bo'ladi [2].

D.F.Halpernning [4] ta'kidlashicha, ijodkor shaxs uchun quyidagilar xarakterli:

- shaxsning o'zaro bog'liq sifatlari to'plami (ijodiy yo'nalganlik, motivatsiya, qobiliyatlar, tafakkur, irodaviy sifatlar), bunda motivlar va qobiliyatlar markaziy o'rin tutadi, ular ichki faollik va natijalilikni belgilab beradi;
- ijodkor shaxsning mavjudligi va faoliyati asosiy mazmuni sifatida ob'ektiv va sub'ektiv natijaning majburiyligi;
- bu natijaning yangiligi va originalligi (o'ziga xosligi);



- ijodiy shaxsga nisbatan, shubhasiz, ijobiy axloqiy munosabat;

-shaxs tuzilmasida ijodiy sifatlarning doimiyligi, barqarorligini ta'kidlash.

ijodiy individuallik deganda shaxsning shakllanib ulgargan yaxlit yadrosi, xarakter qirralarini belgilaydigan va shaxsning barcha namoyonliklari avtonomligi, faolligi, o'ziga xosligi va originalligida, ijodiy yo'nalganlikda, shaxsning o'z e'tiqodi va qadriyatlarini oxirigacha himoya qilishga tayyorligida ifodalanadigan boy ichki olamga ega bo'lgan shaxsni tushunish mumkin.

Pedagogning ijodiy individualligi – alohida sifat, umuman shaxsning rivojlanganlik darajasi. Shundan kelib chiqqan holda, unga bir ma'noli (aniq) ta'rif berishning imkonи yo'q. Uning mohiyati butun shaxsning o'ziga xosligi va yaxlitligida (ichki tomon), hayotiy va pedagogik maqsad va vazifalarni qo'yish avtonomligi, xatti-harakatlarning mustaqilligi, hayot va faoliyat mazmunini tinimsiz izlash, topilgan, kechirilgan ideallar va hayotiy qadriyatlarni oxirigacha himoya qilishga tayyorlikda namoyon bo'ladigan o'z ifodasini topgan o'qituvchi shaxsi va faoliyati barcha ko'rinishlarining originalligi, yorqinligi, o'ziga xosligi va keng miqyosliligidagi (tashqi tomon).

Pedagogning ijodiy individualligi uning shaxsining yo'nalganlik (qadriyatlар, motivatsiya, ustanovka); shaxsiy sifatlar (psixik sifat va jarayonlarning individual ko'rinishlari); kognitiv soha (tafakkur mazmuni, daraja va operatsiyalari) kabi mazmuniy tomonlarida namoyon bo'ladi [5].

O'qituvchining yo'nalganligi:

- pedagog shaxsining va faoliyatining ichki sterjenini (o'zagini) tashkil etadigan qadriyatlар, e'tiqod va g'oyalarning mavjudligi:

- shaxsiy maqsadlarning insonparvarlik dominantasi (ustivorliklari);

- o'z faoliyati maqsadini insonni rivojlantirishdek yuksak missiya sifatida tasavvur qilish;

- alohida ruhiy kayfiyat;

- kasbiy faoliyat sohasida amalga oshiradiganlarining hammasini chuqur shaxsiy mazmun bilan to‘ldirish;
- o‘zini kasbi bilan jiddiy tarzda o‘xshatish (bir deb bilish);
- o‘ziga ishonch, optimizm, o‘zini o‘zi dolzarblashtirishga intilish;
- ijodiy motivatsiyaning yuqori darajasi, qiziqishlar doirasi kengligi bilan xarakterlanadi.

Ijodiy individuallikni tavsiflaydigan shaxsiy sifatlarga quyidagilar kiradi:

- voqeа-hodisalar borishiga chuqur emotсional sho‘ng’ish;
- pedagogik qobiliyatlarning mavjudligi, artistiklik, ekspressiv qobiliyatlar, yoqimtoylik, empatiya, o‘z g’oyalarini amalga oshirish va kutilgan maqsadlarga erishishda irodalilik va maqsad sari intilish;
- ochiqlik, samimiyat.

O‘qituvchi psixikasining kognitiv sohasi jiddiy omil sanaladi: qabul qilinadigan qarorlarning asoslanish xarakteriga ko‘ra u yoki bu tipiga moyillik o‘qituvchi individualligining muhim tomoni sanaladi.

Pedagog faoliyatining individual uslubi – u ma’qul ko‘radigan usullar tizimi, fikrlash tarzi, muloqot manerasi, talablarni qo‘yish va nizolarni hal qilish usullari.

Pedagog individual faoliyatining ijodiy uslubi umumiylit (pedagogik yo‘nalganlik, pedagogik qibiliyatlar, psixologik-pedagogik qonuniyatlarni bilish va foydalana olish, psixologik kuyunchaklik, kuzatuvchanlik, pedagogik takt va b.) bilan bir qatorda ko‘p jihatdan o‘ziga xoslikka (spetsifik) ham ega.

Pedagogning ijodiy individualligi asosan «o‘qituvchi – o‘quvchi» munosabatlar tizimida, ularning o‘zaro hamkorligi ilg’ab bo‘lmash intimacy jihatlarida, ta’lim muassasasining ma’naviy-madaniy muhitiga ta’sirida namoyon bo‘ladi. Pedagogning ijodiy individualligi «shaxsiy sifatlarga quyuq aralashtirilgan» nozik, variantiv texnologiyalar yaratish imkonini



beradi [7].

Pedagogning ijodiy individualligi rivojlanishini tormozlaydigan (sustlashtiradigan) omillarga quyidagilarni kiritish mumkin:

- faoliyatga hayot mazmuni sifatida munosabatning yo'qligi;
- o'qituvchining o'z individual xususiyatlarini yaxshi anglab yetmaganligi;
- yagona to'g'ri bilib, standart xalq-atvorga intilish;
- odat kuchi;
- o'z kuchiga ishonchsizlik;
- o'zini o'zi ijodiy namoyon qilish malaka, ko'nikma va vositalarining mavjud emasligi va b.

Pedagogning ijodiy individualligini aniqlashda faqat eng umumi yondashuvlar xaqida gapishtirish, ijodkor shaxslar uchun umumi bo'lgani holda, har safar o'zgacha namoyon bo'ladigan sifatlarni tavsiflash mumkin. Aslida individuallik u yoki bu sifatni namoyon qilishdagi mana shu o'ziga xoslik, noyoblikda mujassam bo'ladi. Bu esa betakrorlik, shaxsning chuqurligi eng qimmatlisidir.

Bo'lajak o'qituvchining ijodiy individualligini va individual uslubini shakllantirishda boshlang'ich bosqich o'z-o'zini tarbiyalash, uning o'z noyobligi va ahamiyatliligin anglashini rag'batlash, gumanistik (insonparvar) ustyanovkalarni (birinchi navbatda, o'zini va boshqalarni) qabul qilish, tasavvurni, ijodga ehtiyoj va qobiliyatni rivojlantirish bo'lishi lozim.

Demak, OTM o'qitish jarayonidayoq bo'lajak o'qituvchining ijodiy individualligini aniqlash va shakllantirishga va uning individual uslubiga e'tibor qaratish, ularning amaliy namoyon bo'lishi uchun sharoit yaratish zarur. Bu bo'lajak o'qituvchilarga odatiy xattiharakatlarning mavjud stereotiplarni bartaraf qilish imkonini beradi, idrok mustaqilligini shakllantiradi. Ularda o'z hayotining faol sub'ekti bo'lish, o'zini yaratuvchi, boshqalarga o'xshamagan va ular uchun ahamiyatli deb his qilish fundamental ehtiyojni yuzaga keltiradi.



Shu tariqa bo‘lajak o‘qituvchining ijodiy individualligi dunyoga kela boshlaydi va uning ta’lim oluvchilar bilan mazmunli ma’naviy-emotsional aloqalari rivojlanan boradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Abdullayeva B.S. Fanlararo aloqadorlikning metodologik – didaktik asoslari: ped. fan. dok. diss... . – Toshkent: TDPU, 2006. – 264 b.
2. Александрова Е.А., Алёшина М.В. Элементы индивидуализации учения. //Школьные технологии.-2003.-№2- с. 54-66.
3. Берн Э. Лидер и группа. О структуре и динамике организаций и групп. – Екатеринбург: Изд-во «Литур» , 2000. – 320 с.
4. Halpern D.F. Teaching critical thinking for transfer across domains: Disposition, skills, structure training, and metacognitive monitoring. *Am. Psychol.* 1998, 53, 449-455. [CrossRef]
5. Hollis Helena The influence of reading fiction upon critical thinking. UCL (University College London). 2022. <https://discovery.ucl.ac.uk/id/eprint/10143047>
6. Ma’murov B.B. O‘quvchi shaxsiga yo‘naltirilgan o‘quv-biluv jarayonini tashkil etishning pedagogik shart-sharoitlari. Ped. fan. nom.dis. Avtoreferati.– Toshkent: 2009. – 26 b.
7. Najmiddinova G.N. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilari o‘quv-biluv faoliyatini shakllantirishning didaktik asoslari. 13.00.01. Ped. fan. nomz. diss... - T.: 2006.- 139 b.
8. Nazarova X.P. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining kommunikativ savodxonligini ta‘minlashning didaktik asoslari: Ped. fan. nom... Diss... –T.: O‘zPFITI, 1999. – 245 b.
9. To‘ychiyeva I.I. Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida tayyorlov guruxi bolalarining fikrlash faolligini rivojlantirish. T.: 2020. Dissertatsiya 13.00.08 – Maktabgacha ta’lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi. 194 b.



10. Toirova, G., (2020). The importance of the interface in the creation of the corpus. *Internauka*, 7, DOI: <https://doi.org/10.25313/2520-2057-2020-7-5944>.

11. Toirova G., Astanova G., Rahimova N. Artistic Expressions of a Situational Pragmatic System. // International Journal of Recent Technology and Engineering (IJRTE) ISSN: 2277-3878, Volume-8 Issue-3, September 2019. –P.4591-4593

12. Toirova G., Yuldasheva M., Elibaeva I. Importance of Interface in Creating Corpus. // International Journal of Recent Technology and Engineering (IJRTE) ISSN: 2277-3878, Volume-8 Issue-2S10, September 2019. –P.352-355.

13. Toirova G, Abdurahmonova N., Ismoilov A., Applying Web Crawler Technologies for Compiling Parallel Corpora as one Stage of Natural Language Processing. 2022 7th International Conference on Computer Science and Engineering (UBMK) Sep. 14 - 16, 2022, Diyarbakir /Turkey pp. 73–75.